

TA'LIM TIZIMI VA MENEJMENTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJIRIBA YUTUQLARIDAN FOYDALANISH SAMARASI

*Jumaboyeva Olmaxon Qahramon qizi
Qoqon universiteti 1- kurs Magistri*

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim menejmentini rivojlantirishda xorijiy tajriba sifatida menejmentning yapon modelini e'tiborga molik tomonlari yoritildi.

Kalit so'zlari: ta'lim menejmenti, integratsiya, xorijiy tajriba, yapon modeli, "ijtimoiy inson"

Аннотация: В данной статье освещены заслуживающие внимания аспекты японской модели менеджмента как зарубежного опыта развития образовательного менеджмента.

Ключевые слова: образовательный менеджмент, интеграция, зарубежный опыт, японская модель, «социальный человек»

Abstract: This article highlights noteworthy aspects of the Japanese management model as a foreign experience in the development of educational management.

Key words: educational management, integration, foreign experience, Japanese model, "social person"

Respublikamizning ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta'minlash borasida O'zbekiston ta'lim menejmentini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada xorijiy tajribalarni o'rganish, uni amaliyotga tadbiiq etish masalasi esa muammoga echim vazifasini bajaradi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 5 maydagi PQ-3697 sonli "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va 2018 yil 7 maydagi PQ-3698 sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirilib, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari amaliyotida jahon tajribasini joriy etish o'ta muhimligi ta'kidlangan [1].

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya ta'lim sohasini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo'llash zaruratini keltirib chiqarmaqda va shu tufayli yurtimizda ta'lim ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki, ta'lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli, bugungi kunda ta'lim menejmentini rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri bu xorijiy mamlakatlar tajribasini quyidagi eng taraqqiy etgan:

- video konferentsiyalar
- masofaviy ta'lim turlari
- onlayn rejimida o'tkaziladigan faol muloqotlar kabi ta'lim usullarni tadbiiq etish

ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar bo'yicha baxs-munozaralar, ularning echimlari, ma'lum bilim sohalari bo'yicha tajriba almashish kabi vazifalarni amalga oshirilishi ayni mudaao.

Bugungi kunda ta'lim menejmentini rivojlantirishning xorijiy tajribalar asosida o'rganish ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirish dolzarbligini va zaruratini ko'rsatadi. Mazkur masalani natijaviyligi:

- kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash;
- o’qitishni yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalarga moslashtirish;
- zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ta’lim sifatini ta’minlash va modernizatsiyalashtirish;
- zamonaviy o’quv-metodik ta’minotni shakllantirishda xorijiy tajribalardan jobiy foydalanishimizda aks etadi.

Har bir mamlakatning o’ziga xos menejment modellari mavjud bo’lib, mazmun jixatidan bir-biridan farq qiladi. Quyida menejmentning yapon modelini izohlaylik:

- Yaponiya jahon bozorida etakchi o’rinlardan birini egallaydi. Buning asosiy sabablaridan biri u tomonidan qo’llanayotgan menejmentning insoniy omilga qaratilgan modelidir. Yaponiyada milliy xarakterning o’ziga xos alomatlariga mos keluvchi mehnat va hulq usullari vujudga kelgan. Yaponlar insoniy resurslarni mamlakatning asosiy boyligi deb hisoblaydilar. Xo’jalik yuritishning yapon tizimi tarixan vujudga kelgan guruhli jipslashganlik va yaponlarni yuqori sifatli mahsulotlarni yaratishga tug’ma intilishi an’analariga suyanadi. Yapon menejmentining mohiyati odamlarni boshqarishdan iboratdir. Bunda yaponlar odamlar guruhiga qaraydilar, guruh tomonidan ma’qullanadigan yoshi bo’yicha kattaroq kishiga bo’ysunish an’anasi vujudga kelgan. Yaponlar mehnatning oldida bosh egadilar. Ularni ko’pincha "mehnatsevarlar" deb ataydilar. Shu bois, menejmentning yapon modeli "ijtimoiy insonga" mo’ljallangan. "Ijtimoiy inson" rag’batlar va motivatsiyaning o’ziga xos tizimiga egadir. Rag’batlarga ish haqi, mehnat sharoitlari, rahbarlik usuli, xodimlar o’rtasidagi shaxslararo munosabatlar kiradi. Xodimning mehnatdagi muvaffaqiyatlari, uning xizmatlarini tan olinishi, xizmatdagi o’sish, kasbiy mukammalashish, ijodiy yondashuv mehnatga motivatsiya bo’ladilar. Yapon ta’lim menejmenti yaponliklarda mehnat va hulq usullarini vujudga keltirish bilan shug’ullanadi. Masalan, yapon maktablarining quyidagi xususiyatlari diqqatga sazovordir:

- Yapon maktablarida o’quvchilar tozalash ishlarini o’zlari qilishadi. Bu tarbiya bog’chadan boshlab o’rgatiladi. Tozalash san’at darajasiga chiqqan. Keyinchalik bu jarayon ish joylarida ham davom etadi. Shuning uchun tozalik vaqti yaponlar uchun odatiy hol.

- Yapon maktablarida qa’tiy tartib o’rnatilgan. Pedagoglarga bo’lgan hurmat baland, chunki, yaponlar ko’p ishlashadi va farzandlarining ta’limini o’qituvchiga ishonib topshirishadi. O’qituvchilar esa bu ishonchni oqlashga harakat qiladilar. Jamoat orasida o’zini o’qituvchiman deb tanishtirsa “O’o’o” deb havas qilishadi va keyingi safar ko’rishib qolganda “Ustoz” deb chaqirishadi.

- Yapon maktablarida kutubxona darsi o’tiladi. Yapon o’quvchilariga kitobni qanday o’qish, kitoblar bilan qanday ishlash o’rgatiladi. Zero, aynan shu dars orqali yapon o’quvchilarida mehnat va hulq usullari mujassamlashadi.

- Yapon maktablarida o’quvchilarni o’z-o’zini boshqarishga o’rgatish tajribasi ham mavjud. Bu bilan ular mehnat qilishga, tozalikka rioya etishga, o’z hulqi va madaniyatini mustaqil boshqarishga odatlanib borishadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim menejmentini rivojlantirishda xorijiy tajriba yutuqlaridan foydalanish natijasida yurtimizning ta’lim menejmentini maqsadli rivojlantirishga o’z hissamizni qo’shamiz. Masalan, yapon maktabi amaliyotida qo’llaniladigan tartiblarni O’zbekiston ta’lim tizimiga ham joriy etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Bizning yurtimizda ham azal-azaldan ota-bobolarimiz mehnatni ulug’lab kelishgan, ona-momolarimiz hushhulqli, ozoda va pazanda bo’lishgan, menejmentning

yapon modelining mehnat va hulq usullarining vujudga kelishi, aslida o`zbek xalqining azaliy an`anasining zamonaviy ko`rinishi,-desak mubolag`a qilmagan bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T: O‘zbekiston, 2017. 104 b
2. Yuldoshev N.K., Nabokov V.I. "Menejment nazariyasi". Darslik. T.TDIU, 2013.- 433 b.
3. Muxtorov A., Sulonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovacion texnologiyalar 2012. 4. 9 b.
4. Turakulova, Feruza Aminovna. "Qualified practice organized in the system of higher education-the main factor in the activity of the future pecialist" Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1686-1692